



2019 YIL YANVAR-FEVRAL OYLARIDA ANDIJON VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-fevral

RAQAMLAR:


- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **4680,9 mlrd.so'mni** ;
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi **3668,5 mlrd. so'mni** ;
- Iste'mol tovarlarning ja'mi sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi **78,4 %** ni
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **16,5 %** ni tashkil etdi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-fevral oylarida viloyatimiz korxonalari tomonidan **4680,9** mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan .

Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **98,0** foizni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishning oshishiga elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari ham xissa qo'shdi. Ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **1,2** foiz tashkil

2019 yil yanvar-fevral oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi





Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **24,9** mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,5 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019 yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **4588,9** mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **98,0 %** ni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **54,8** mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **1,2 %** ni) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **12,3** mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,3 %** ni) tashkil etdi.



Yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat
korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarilishi

Ishlab chiqariladigan sanoat mahsulotlari		Hajmi, soni	2018 yil Yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar	2019 yil yavar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar
Yengil avtomobillar (ixtisoslashtirilmagan)		dona	19952	30632
Paxtadan yigirilgan ip		tonna	3353	3308
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar		tonna	390,2	254,7
Tabiiy gaz		mln. kub. metr	8,5	9,1
O'simlik yog'i (tozalangan)		tonna	3058,6	3638,3
Alyuminiydan elektr izolyatsiyasiz o'ralgan sim, po'lat arqonlar, to'kilgan shnurlarva shu kabi buyumlar		tonna	1863,2	1884,7
Aroq – (spirt 100%)		ming litr	2834	2469

GM Uzbekistan nafaqat viloyatimiz balki Respublikamiz sanoatida muhim o`rin egallaydi. Ayni paytda yurtimiz yo`llari va ko`plab davlatlar avtomagistrallarida kechayu kunduz harakatlanayotgan «O`zbekistonda ishlab chiqarilgan» belgisi ostidagi yuz minglab mashinalar iqtisodiyotimizning samaradorligi va yuksak salohiyatini namoyish etmoqda.

Viloyatda GM Uzbekistan tomonidan 2019 yil yanvar-fevral oylarida 30632 dona avtomobil ishlab chiqarildi. Shuni alohida ta`kidlab o`tish joizki, korhona tomonidan yanvar oyidan boshlab yangi Tracker rusumli avtomobil ishlab chiqarish boshlandi.

2019 Yanvar-fevral oylarida GM UZBEKISTAN tomonidan ishlab chiqarilgan avtomobillar soni (dona)




Ishlab chiqarilgan avtomobillar nomi	2018 yil yanvar-fevral oylarida	2019 yil yanvar-fevral oylarida
MATIZ	1237	0
SPARK	2884	3089
NEXIA T 250	7648	9914
COBALT	3497	8601
GENTRA	3524	6588
MALIBU	308	1666
CAPTIVA	854	4
TRACKER	0	770
JAMI	19952	30632

Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Andijon viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Asaka tumani (viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmning 66,3 % ulushini), Andijon shaharlari (14,7 %), Honobod shaharlari (3,0 %), Shahrixon (2,2 %), Andijon (2,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2019 yilning yanvar-fevral oylarida shahar va tumanlar kesimida jami sanoat ishlab chiqarish hajmi

1-diagramma



Shu bilan birga eng kam ulush Bo'z (0,5 %), Ulug'nor (0,5 %), Paxtaobod (0,5 %) va Buloqboshi (0,6 %) tumanlariga to'g'ri keladi.


Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida, viloyatda 2019 yilning yanvar-fevral oylarida jami 4680,9 mlrd so'mga teng sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Shahar va tumanlar kesimida yuqori hajm Asaka tumanida 3101,7 mlrd so'mni, Andijon shahrida 686,2 mlrd so'mni, Honobod shahrida 138,6 mlrd so'mni, Andijon tumanida esa 106,7 mlrd so'mni tashkil etdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora — tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi **3668,5** mlrd.so'mni tashkil etdi va ja'mi sanoatdagi ulushi esa **78,4 %** ga yetdi.


2019 yilning yanvar-fevral oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi

2-diagramma




Yanvar-fevral oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da

3-diagramma



2019 yilning yanvar-fevral oylarida shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi

4-diagramma




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 16,5 % tashkil etmoqda.

2019 yilning yanvar-fevral oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %

7-diagramma




Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Bulqoboshi tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Paxtaobod tumanida (99,8 %), Baliqchi tumanida (96,6 %) va Shahrixon tumanida (87,8 %) tashkil etdi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Asaka tumanida (1,6 %), Honobod shahri (13,5 %) kuzatildi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Asaka tumanida (9812,3 ming so'm), Honobod shahrida (3347,2 ming so'm), Andijon shahrida (1593,1 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (1540,2 ming so'm) yuqoriligini ko'rsatmoqda.

2019 yil yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

6-diagramma



Andijon viloyat statistika boshqarmasining
Sanoat statistikasi bo'limi
Telefon: (+99871) 233-82-57